

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING JAMIYATDAGI O'RNI

Avazova Sevinch Hamza qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

avazovasevinch7806@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17365792>

**Annotatsiya:** Prokuratura organlari huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular qonun ustuvorligini ta'minlash jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda bevosita ishtirok etadi. Ushbu maqolada prokuratura institutining huquqiy asoslari, uning davlat boshqaruvidagi o'rni va inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Prokuratura faoliyati sud hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va qonun chiqaruvchi tizim bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning huquqiy maqomi mamlakat konstitutsiyasi hamda tegishli qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan. Maqolada prokuratura faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston prokuratura tizimining rivojlanish istiqbollari o'rganiladi. Shuningdek, prokuratura institutining mustaqilligi va uning jamiyat barqarorligiga ta'siri haqida ilmiy asoslangan xulosalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** prokuratura tizimi, protest, mansab mavqeyi, harbiy unvoni, dastlabki tergov, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, strategik birlashma, prokuror nazorati, prinsiplar, vakolarlar, ijtimoiy moddiy ta'minlash.

## LEGAL FOUNDATIONS OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN SOCIETY

Avazova Sevinch Hamza Qizi

Tashkent State University Of Law

Faculty Of Criminal Justice, 1st-Year Student

**Annotation:** The prosecutor's office operates as an independent body within the state power system and plays a crucial role in ensuring the rule of law. This article analyzes the legal foundations of the prosecutor's office, its position in state governance, and its significance in protecting human rights. The activities of the prosecutor's office are closely linked with the judiciary, law enforcement agencies, and the legislative system, with its legal status defined by the country's constitution and relevant legal acts. The article examines reforms aimed at enhancing the efficiency of the prosecutor's office, international experiences, and the prospects for developing the prosecutorial system in Uzbekistan. Additionally, it provides scientifically grounded conclusions on the independence of the prosecutor's office and its impact on societal stability.

**Keywords:** Prosecutor's office system, protest, official position, military rank, preliminary investigation, department for the fight against economic crimes, strategic union, Prosecutor's supervision, Principles, Cases, Social material support

## ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИНСТИТУТА ПРОКУРАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ЕГО РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация:** Прокуратура функционирует как независимый орган в системе государственной власти и играет ключевую роль в обеспечении верховенства закона. В данной статье анализируются правовые основы института прокуратуры, его место в системе государственного управления и его значение для защиты прав человека. Деятельность прокуратуры тесно связана с судебной властью, правоохранительными органами и законодательной системой, а её правовой статус определяется конституцией страны и соответствующими нормативными актами. В статье рассматриваются реформы, направленные на повышение эффективности деятельности прокуратуры, международный опыт, а также перспективы развития прокурорской системы в Узбекистане. Кроме того, представлены научно обоснованные выводы о независимости прокуратуры и её влиянии на стабильность общества.

- **Ключевые слова:** Система прокуратуры, Протест, Должностное положение, Воинское звание, Предварительное расследование, Департамент борьбы с экономическими преступлениями, Стратегическое объединение, Наблюдение прокурора, Принципы, Дела, Социальное материальное обеспечение.

### **KIRISH**

Tarixdan ma'lumki, bevosita prokuratura institutining vujudga kelish jarayoni Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining istilo qilinishi va o'lkani boshqarishga doir tartiblar o'rnatilishi bilan bog'liqdir. Prokuratura faoliyatining tashkil topib, rivojlanib borishi borasidagi dastlabki bosqich sifatida Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasini bosib olgan davridan tortib to Turkiston o'lkasini boshqarishga oid vaqtinchalik Nizomning qabul qilinishida biz prokurorlik funksiyasining dastlabki alomatlarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu nizomga muvofiq, prokuratura mustaqil organ sifatida tashkil qilinmagan bo'lsada, prokurorlik funksiyasini olib borish general-gubernatorlarga yuklatilgan edi. Sirdaryo gubernatori, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshlig'i kabi mansabdor shaxslar bir vaqtning o'zida prokuror hisoblanib, ishlarni o'z xohishiga ko'ra tugatib yuborishlari yoki ma'muriy tartib-taomillarga ko'ra hal qilishlari ham mumkin edi. 1887-yilga kelib Sirdaryo, Marg'ilon va Samarqand viloyatlarining viloyat sudlari tarkibida viloyat prokuraturalari tashkil etilgan va ularda faoliyat olib boruvchi prokurorlar adliya vaziriga bo'ysunishgan. Bu prokurorlarning asosiy vazifasi Rossiya podsholigi qonunlarining o'lkamizda ijro qilinishi ustidan nazorat qilish bo'lgan. Ana shu taxlitda Turkistonda prokuratura institutining asosi paydo bo'la boshladi. Yillar davomida bu institut rivojlanib O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan bugungi kunga qadar mamlakatda adolatli fuqarolk jamyati qurish hamda jamyatda qonun ustivorligini taminlash borasida hokimiyat tizimida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi 1992-yil 8-yanvarda tashkil etilgan bo'lib, ushbu sana prokuratura organlarining mustaqil faoliyat boshlagan kunidir. Shu yilning 9-dekabr sanasida "Prokuratura to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

### **Muhokama**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Toshkent shahrida, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 66-uy manzilida joylashgan asosiy binoda faoliyat olib boradi. Fuqarolar shikoyat va murojatlari bilan Bosh prokuraturaning ishonch telefonlariga ya'ni 10047 raqamiga murojat qilishi mumkin. Shuningdek ular Prokuratura tiziming rasmiy veb-sayti ([prokuratura.uz](http://prokuratura.uz)) orqali ham bog'lanish imkoniyati mavjud. Fuqarolar ushbu veb-sayt orqali tashkilotning tarixi, maqsad va vazifalari, rahbariyat tarkibi, prokuratura sohasidagi yangiliklar, ular tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar bilan tanishish imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga Prokuratura tizimining elektron pochta manzili [gen.kpro@exat.uz](mailto:gen.kpro@exat.uz) ga ularining huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan murojaatlar yuborishi organning faoliyati bilan bog'liq savollarga javob olishlari mumkin.

Prokuror atamasi lotin tilida "procurator" so'zining asosini tashkil qilib **himoya, g'amxo'rlik, kuzatish** degan ma'nolarni bildiradi. Dunyo amaliyotida prokuratura organlari maqomi ularning qanday vakolatlarga egaligi, qaysi hokimiyat tarkibida ekanligidan kelib chiqib quyidagicha bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

- sud hokimiyati tarkibidagi organ;
- ijro hokimiyati tarkibidagi organ;
- biron-bir hokimiyat tarkibiga kirmaydigan mustaqil organ;

**Ijro hokimiyati tarkibidagi organ sifatida** prokuratura Adliya vazirligi tarkibida hisoblanadi. Ular o'z faoliyatida uzviy bog'liq va hamkorlikda davlat huquqiy tizimining to'g'ri ishlashini ta'minlash borasidagi ishlarni amalga oshiradi.

**Sud hokimiyati tarkibidagi organ sifatida** prokuratura odil sudlovni ta'minlash bilan bog'liq bir qator vazifalarni amalga oshiradi. Hujjatga muvofiq, prokurorning sudda ish ko'rilishi jarayonida ishtirok etish tartibi ilg'or xalqaro standartlarga moslashtirish doirasida:

Prokuror sud jarayonida ayblovdan voz kechgan taqdirda, reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish;

prokuror tomonidan taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagina, suddan ishni o'rganish uchun chaqirib olish;

prokurorning fuqarolik va iqtisodiy ishlarning ko'rilishida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishini chegaralash nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, Farmon bilan sudda ishlarni ko'rishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini amalda ro'yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etiladi. Shuningdek ular qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltiradi.

**Biron-bir hokimiyat tarkibiga kirmaydigan mustaqil organ** sifatida prokuratura o'z faoliyatini boshqa davlat hokimiyati organlaridan, siyosiy tuzilmalardan xoli ravishda faqat qonunga muvofiq amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari konstitutsiyaviy organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prokuratura tizimi:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
- Qoraqalpog'iston prokuraturasi
- Viloyat va Toshkent shahar prokuraturasi
- Tumanlar va shahar prokuraturasidan iborat.

viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;

Konstitutsiyaning 144-moddasiga muvofiq prokuratura organlarining yagona markazlashgan tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadiga Bosh prokurori boshchilik qiladi. Viloyat, tuman, shahar prokurorlari Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi va vakolat muddati besh yil. Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Prokurorning faoliyatiga g'ayriqonuniy ta'sir o'tkazish, to'sqinlik qilish va uning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Prokuratura organlarining markazlashgan tizimiga boshchilik qiladigan Bosh prokuror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori quydagi vakolatlarni bajaradi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palarasiga o'z vakolatlari kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

Oliy sud Plenumi majlislarida ishtirok etishi va takliflar kiritishi;

Bosh prokuratura hay'atining tarkibini tasdiqlash va Prokuratura xodimlarida darajali unvonlar berish to'g'risida taklifni Prezidentga kiritadi.

Hozirgi kunda 1962-yil 5-noyabr kuni Toshkent shahrida tug'ilgan va ushbu lavozimgacha bir nechta lavozimlarda faoliyat yuritgan Nig'matilla To'lqinovich Yo'ldashev 2019-yil 20-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan Bosh prokuror etib tayinlandi. Bosh prokuror o'rinbosarlari-Salom Samadov, ikkinchi o'rinbosari-Svetlana Ortiqova va jami prokuror- tergov xodimlari-316 shtat birligi o'z faoliyat yo'nalishlarini quyidagicha olib borishadi:

-Inson va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidannazoratchoralarini olib borishdir.

-Barcha idoralar, korxonalar, tashkilot, muassasalar, mansabdor shaxslar va fuqarolartomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat.

-Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi idoralarning qonunlarni ijro etishlarini nazorat qilishvaularning qonunlarni qo'llashga doir faoliyatini muvofiqlashtirish

-Sudlarda jinoiy ishlar ko'rib chiqilishida davlat ayblovni qo'llab-quvvatlash, sudlardafuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda

xo'jaliknizolariniqarab chiqishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

-Soliq intizomini mustahkamlashga soliq valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat;

-ushlanganlarni saqlash, dastlabki qamoq, sud tayinlangan jazo va majburiy xarakterdagiboshqa choralarni o'tish joylarida qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

-Qurolli Kuchlar qonunlarga rioya etishini nazorat qilish;

-jinoyatchilarga nisbatan dastlabki tergov ishlarini amalgam oshirish;

-qonunchilikni takomillashtirish va qonunlarni targ'ib qilishda hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish

Prokuratura organlarini tashkil etgandan so'ng endi ular uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish o'z oldiga maqsad qilib qo'yildi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992- yilning 24-yanvarida «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil Masalalari to'g'risida»gi 33-son qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzurida Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi tashkil etildi. Markaz tarkibida qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlarning malakasini oshirish Ilmiy kengashi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yilning 7-noyabrdagi PQ-727-son Qaroriga ko'ra Markaz negizida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari tashkil etildi. Prokuratura organlarining asosiy maqsad va mohiyati: Prokuratura organlarining faoliyati qonun ustuvorligini har tomonlama qaror toptirish va huquq tartibotni mustahkamlashga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va ijtimoiy tizimlarini, milliy g'urur va huquqiy tizimlarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajoovuzlardan muhofaza qilishga qaratilgan.

Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonunning 18-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etildi. Departamentga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning o'rinbosariga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladi va rahbarlik qiladi. Departament hamda uning joylardagi bo'limlarini tashkil etish bo'linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tarkibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi". Uning asosiy vakolatlari quydagilardan iborat:

Soliq va valyuta qonunlariga zid bo'lgan jinoyatlar, shu jumladan, soliqlardan qochish noqonuniy valyuta operatsiyalari, soliq va valyuta sohasidagi firibgarliklar, hamda boshqa iqtisodiy jinoyatlar yuzasidan tahlil va tekshiruvlar o'tkazish;

Soliq sohasidagi jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;

Soliq va valyuta qonunlariga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish usullari ishlab chiqish va shunga doir masalalarda vakolatlari doirasida ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevralda qabul qilingan PF-355-sonli "Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida" gi Farmoni prokuratura organlari tizimiga kiruvchi yana bir muhim organ-O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasining huquqiy maqomini belgilash uchun muhim hujjat bo'ldi. Ushbu farmonga

asosan O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Harbiy prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi prokuroriga bo'ysundirildi hamda sobiq Turkiston harbiy okrugi Harbiy prokuraturasi negizida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy prokuraturasi tashkil etildi. Shuningdek shu farmon asosida Respublika hududidagi barcha harbiy qismlar, strategik ahamiyatdagi birlashmalarda, harbiy-o'quv muassasalari va boshqa harbiy tuzilmalar faoliyati ustidan prokuror nazorati o'rnatilishi ta'minlandi.<sup>1</sup>

Prokuratura organlarining prinsiplari huquqiy tizimning asosiy qoidalarini belgilab beradi va ularning faoliyatini tartibga soluvchi asosiy yo'nalishlarni ifodalaydi. Har bir huquqiy tizimda prokuratura o'zining funksiyalari va vazifalarini bajarishda bir qator muhim prinsiplar asosida harakat qiladi. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari: *birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik* hisoblanadi.

**Birlik prinsipi** deganda, prokuratura organlari Bosh prokuror rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimini tashkil etishi, quyi turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi tushuniladi.

**Markazlashganlik prinsipi** deganda, prokuratura organlarining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimini tashkil etilishi tushuniladi.

**Qonuniylik prinsipi** prokuratura organlari ishini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur prinsipning mazmuniga ko'ra, prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq roiya etishlari va ularni bajarishlari shartligida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga prokuratura organlari Konstitutsiya va boshqa qonunlarda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda faqatgina qonunlarda belgilangan vakolatlardan, usul va vositalardan foydalanadilar.

Prokuratura xodimlarining mustaqilligini tom ma'noda ta'minlash maqsadida amaldagi qonunchilikda ushbu organlar xodimlarga qator kafolatlar va cheklovlar tizimi nazarda tutilgan. Prokuratura organlari xodimlari uchun nazarda tutilgan kafolatlar bevosita ularning daxlsizligi moddiy va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liqdir. Xususan, prokuror tergovchi va surishtiruvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish prokuratura organlarining mutlaq vakolatlariga hisoblanadi. Prokuratura xodimlarini ijtimoiy moddiy taminlash ularning o'z vazifalarini xolis bajarishga xizmat qiladi. Shu sababli prokuratura xodimlarining ish haqiga turli xil ustamalarni nazarda tutilgan. Jumladan, prokuratura organlari xodimlarining ish haqiga mansab maoshi, darajali unvonlar (harbiy unvonlar), ko'p yillik xizmat uchun to'lanadigan ustama haqlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar kiritilgan. Organ xodimlari uchun alohida mehnat ta'tillari nazarda tutilgan bo'lib, davomiyligi o'ttiz kalendar kundan iborat haq to'lanadigan yillik ta'til beriladi. O'n yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlariga o'n besh kalendar kun yigirma yildan ortiq stajga ega bo'lganlariga esa o'n besh kalendar kun qo'shimcha ta'til beriladi.

Prokuratura organlari rivojlanishining uchinchi bosqichi (2016-yildan keyingi davr) prokuratura organlarining chinakam xalq prokuraturasiga aylantirish davrini boshlab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-son farmoniga asosan Mamlakatda davlat boshqaruvini takomillashtirish

<sup>1</sup> <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami.

hamda demokratlashtirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.<sup>2</sup>

Ushbu jarayonda prokuratura organlari tomonidan qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ijrosini ta‘minlash, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash choralari ko‘rilmoqda.

Prokuratura organlarining qonunchilik ijrosini ta‘minlash borasidagi mas‘uliyatini yanada oshirish hamda 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi so‘zsiz amalga oshirish maqsadida:

1. Jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro‘yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so‘zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqali “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi va bunda:

birinchidan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so‘zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to‘siq bo‘luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishni;

uchinchidan, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqot o‘rnatishni, fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida hal qilishni, aholining huquqiy madaniyatini oshirishni, jamiyatda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni;

to‘rtinchidan, profilaktika tadbirlarining, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasidagi tadbirlarning ta‘sirchanligini, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni;

beshinchidan, kam ta‘minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilishni, yangi ish o‘rinlari yaratish dasturlarini amalga oshirishni, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lashni;

oltinchidan, malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni, aholiga arzon dori vositalari yetkazishni, ta‘lim jarayonining sifati va ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar davr matini hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishni;

yettinchidan, fuqarolarga arzon uy-joy ajratishni, uy-joy sotib olish uchun, birinchi navbatda, yosh oilalar, yetim bolalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishni, sifatli kommunal xizmat ko‘rsatish va hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishni;

sakkizinchidan, tabiiy resurslar, yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta‘minlashga asosiy e‘tibor qaratildi.

Ushbu farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda o‘rnatilgan normativlarga muvofiq Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan prokuratura organlari uchun texnik va yordamchi xodimlarning qo‘shimcha shtat birliklarini kiritish huquqi berildi va shu asosida:

prokuratura organlari xodimlariga beriladigan uzoq muddatli ipoteka kreditlarini qaytarish uch yillik imtiyozli davr bilan amalga oshirilishi, mazkur davr mobaynida kreditlar bo‘yicha faqat foizlar to‘lanishi tartibi o‘rnatilsh;

Mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijtimoiy rivojlanish va ularning xodimlarini, istisno tariqasida, o‘rnatilgan

<sup>2</sup> <https://streetlaw.uz>

me'yorlardan yuqori miqdorda moddiy rag'batlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bayonnoma qarorlari va topshiriqlarida nazarda tutilgan alohida tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan holda, prokuratura organlarining rivojlanish jamg'armalari hisobraqamlariga kiritilishi belgilandi.

### **Xulosa**

Prokuratura – bu davlatning muhim huquqni muhofaza qiluvchi organi bo'lib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Ushbu organ qonun buzilishlarining oldini olish, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, jinoyat ishlarini tergov qilishda ishtirok etish orqali mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, prokuratura organlari huquqiy islohotlarning muhim ishtirokchisiga aylanib, adolat va qonuniylikni mustahkamlashga hissa qo'shadi. Bosh prokuror esa bu jarayonda muhim rol o'ynab, prokuratura tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, huquqni muhofaza qilish siyosatini shakllantiradi va islohotlarni amalga oshirishda yetakchi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, prokuratura mamlakatning huquqiy rivojlanishida asosiy institutlardan biri bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining amaliy shakli maqola.
2. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to'g'risidagi qonun.
3. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. TDYU nashriyoti:2024. 800 bet.
4. Prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari. TDYU nashriyoti. 2023. 88 bet.
5. Konstitutsiyaviy huquq. O.Husanov 2022-yil 400 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.04.2017 yildagi PF-5019-son.